

KONSTITUTSIYA — YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI

Shakarov Bobur Xusniddinovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Madaminova Sevaraxon Murodiljon qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat hayotidagi o‘rni, ahamiyati va mazmun-mohiyati keng yoritiladi. Asosiy Qonunning inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashdagi roli, davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotni tartibga solishdagi vazifalari tushunarli tarzda bayon etiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston davrida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, inson qadri va adolat tamoyillarining mustahkamlanishi hamda Konstitutsiyani bilishning fuqarolik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Maqola Konstitutsiyaning davlat taraqqiyoti va jamiyat barqarorligidagi o‘rnini yorituvchi mazmunli tahliliy material sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiya, Yangi O‘zbekiston, inson huquqlari, qonun, huquqiy hujjat, inson qadri, jamiyat barqarorligi, taraqqiyot, adolat, g‘oya, fuqarolar, yuksalish, taraqqiyot modeli.*

Kirish

Har bir davlatning o‘ziga xos yo‘li, o‘z taraqqiyot modeli, o‘ziga yarasha qadriyatlari bo‘ladi. Ammo davlatning har qanday yuksalish sari yo‘lida eng muhim tayanch — bu uning Konstitutsiyasi, ya‘ni Asosiy Qonunidir. Chunki Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki xalqning tarixiy xotirasi, jamiyatning maqsad va intilishlari, kelajak sari belgilangan aniq yo‘nalishidir. Har bir

davlatning eng muhim hujjati, uning siyosiy, huquqiy va ma'naviy hayotidagi bosh mezoni — bu Konstitutsiyadir. Konstitutsiya xalqning irodasini jamlaydi, davlat boshqaruvi tartibini belgilaydi, insonning haq-huquqlarini kafolatlaydi va jamiyatning barcha sohalarini yagona tizimga solib turadi. U har bir fuqaroga: “Sen bu Vatanning teng huquqli, hurmatli va erkin a'zosisan”, — deydi. O'zbekiston Konstitutsiyasi ham aynan shunday yuksak mas'uliyat bilan yaratilgan bo'lib, xalqimizning erkinlikka bo'lgan orzusi, adolatli jamiyat qurish istagi va mustaqil davlat barpo etish yo'lidagi qat'iyati mujassam topgan muhim hujjatdir.

Asosiy qism:

O'zbekiston Konstitutsiyasi har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi, davlat hokimiyatining shakllanishi, uning vakolati va javobgarligi tartibini belgilab beruvchi huquqiy asosdir. Shu o'rinda Konstitutsiyamizning tarixi va kelib chiqishiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma'lum bo'lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan. Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog'da sharafl solnomasiga nazar solar

ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz. Avvalambor, konstitutsiyaviy “bino”ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o‘zbek xonliklari, ma’rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an’analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan. Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan. Shu o‘rinda Suveren O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishi yo‘lidagi 10 ta huquqiy qadamni bu boradagi eng muhim tarixiy voqealar sifatida sanab o‘tish lozim. Zotan, Konstitutsiyani yaratish tarixi – bu mustaqillik uchun kurashning uzviy tarkibiy qismidir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 2023-yil 30-apreldagi tahrirlangan nashrida inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, fuqarolarning tengligi, davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiy va siyosiy tuzilma, oila, ta’lim, mehnat, sog‘liqni saqlash masalalari, xalq hokimiyatchiligi tamoyillari keng yoritilgan. Bu hol Konstitutsiyani har bir fuqaro hayotining ajralmas qismiga aylantiradi. Zero, unda belgilangan normalar jamiyatdagi tartib, osoyishtalik va taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Birinchi bo‘lim 1- bob 2- moddasida quyidagicha ta’kidlangan **“Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.”**

Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasi mamlakatimiz davlat tuzilmasining eng asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi. Mening fikrimcha, bu modda xalq suvereniteti va davlat mas’uliyatini aniq belgilab, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Davlat xalq irodasini ifoda etishi, ularning manfaatlariga xizmat qilishi — bu nafaqat qonuniy talab, balki jamiyatning barqarorligi va fuqarolarning davlatga ishonchi uchun muhim shartdir. Shu bilan birga, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat oldida mas’ul bo‘lishi — har bir rahbar va tashkilot faoliyati oshkora, adolatli va hisobdor bo‘lishini ta’minlaydi.

Shaxsiy nuqtai nazardan, 2-modda fuqarolarga o‘z haqlarini anglash, davlat faoliyatini kuzatish va unga faol ishtirok etish imkonini beradi. Bu modda o‘z ichida xalqqa xizmat qilish va javobgarlik tamoyilini mujassamlashtirgan bo‘lib, mustaqil, demokratik va adolatli jamiyat qurish yo‘lida asosiy prinsip hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar Konstitutsiyaning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Prezidentimiz tashabbuslari bilan hayotga tatbiq etilayotgan: inson qadri va manfaatlarini ustuvor qo‘yish, xalqparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, adolatni ta’minlash, mahalla institutini kuchaytirish, yoshlar va ayollar huquqlarini yanada keng kafolatlash, ijtimoiy himoya va ta’lim tizimini rivojlantirish kabi islohotlar Konstitutsiyada mustahkam o‘rin egalladi. Bu jarayon Konstitutsiyani zamonaviy hayot talablariga mutlaqo moslashtirdi, xalqning huquq va manfaatlarini real himoya qiladigan hujjatga aylantirdi.

Inson qadri — Konstitutsiyaning bosh g‘oyasi

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning markazida birgina g‘oya turadi — bu inson qadri. Konstitutsiyada bu tamoyil quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topgan: har bir fuqaroning sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz; yashash, ta’lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi kafolatlangan; sud himoyasi ta’minlanadi; mehnat qilish va munosib turmush sharoitlariga ega bo‘lish huquqi e’tirof etilgan; davlatning asosiy vazifasi — inson manfaatini himoya qilish ekanligi belgilangan. Bu g‘oyalar orqali Konstitutsiya faqat huquqiy hujjat emas, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni qaror toptiruvchi asosiy vositaga aylandi. Konstitutsiyani bilish — fuqarolik madaniyatining ajralmas qismi. Har bir fuqaro o‘z huquq va burchlarini bilishi, Konstitutsiyaga hurmat bilan yondashishi zarur. Chunki huquqlarimizni himoya qilish uchun qonunni bilishimiz kerak, davlatga bo‘lgan ishonch — qonun ustuvorligiga bog‘liq, jamiyatda tartib va adolat Konstitutsiyaga tayanadi, kelajak avlodning huquqiy ongi yuqori bo‘lishi bugungi yoshlarning savodiga bog‘liq. Konstitutsiyani bilish — bu nafaqat huquqiy bilim, balki fuqarolik pozitsiyasi, Vatanga sadoqat va jamiyat oldidagi mas’uliyatdir.

Xulosa:

Konstitutsiya O‘zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy hayotidagi eng muhim hujjatdir. U bizni birlashtiradi, himoya qiladi, yo‘naltiradi. Bugungi Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot sari dadil qadam tashlayotgani, xalqning ishonchi va davlatning kuchi bir yo‘nalishga jamlangani — aynan asosiy Qonunning hayotiyliigi va mustahkamligidan dalolat beradi. Konstitutsiya — bu faqat kitobdagi matn emas. Bu — xalq irodasi, adolat, erkinlik va farovon kelajakka bo‘lgan ishonch timsolidir.